

**“ZEVARXON” DOSTONIDAGI O’ZLASHGAN SO’ZLARDA
KO’PMA’NOLILIK**
*Qodirova Gulnoza,
O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Jizzax akademik litseyi*

Annatatsiya. Maqolada bir tildan boshqa tilga so’z qabul qilishning omillari, xususan, “Zevarxon” dostonida uchragan turkiy tillarga xos ko’p ma’nolilik masalasi haqida so’z yuritilgan. Shuningdek, o’tmoq, bo’lmoq kabi fe’llarning matndagi ma’nolari misollar asosida izohlangan.

Kalit so’zlar: til, leksik birlilik, lug’at, sheva, ko’p ma’nolilik, badiiyat, doston, syujet, baxshi, epik mahorat, stilistik ma’no, qo’shma fe’l.

**НЕОДНОЗНАЧНОСТЬ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В САГЕ
«ЗЕВАРХАН»**

Кадирова Гульноза,

Джизакский академический лицей МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В статье говорится о факторах заимствования слов из одного языка в другой, в частности, о проблеме многозначности, встречающейся в эпосе «Зевархан», типичной для тюркских языков. Также на примерах объясняются значения таких глаголов, как пройти и стать.

Ключевые слова: язык, лексическая единица, лексика, диалект, полисемия, искусство, эпос, сюжет, рассказ, эпическое мастерство, стилистическое значение, сложный глагол.

AMBIGUITY IN THE ADOPTED WORDS IN «ZEVARKHAN» SAGA

Kadirova Gulnoza,

Jizzakh Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotation. The article talks about the factors of the adoption of words from one language to another language, in particular, the problem of polysemy found in the «Zevarkhan» epic, typical of Turkic languages. Also, the meanings of verbs such as to pass and become are explained based on examples.

Key words: language, lexical unit, vocabulary, dialect, polysemy, art, epic, plot, story, epic skill, stylistic meaning, compound verb.

Kirish. “Zevarxon” dostonining leksik xususiyatlarini o’rganish bizga shunday to’xtamga kelishimizga olib keldi: doston leksikasi tarkibiga o’z va o’zlashgan so’zlar, qo’llanish doirasiga ko’ra umumiste’mol leksika va dialektik birliklar, mavzuiy guruhlanishiga ko’ra, ijtimoiy-siyosiy leksika, kundalik-maishiy leksika, antroponimlar va toponimlar, zoonimlar, mavhum ma’noli leksik birliklar singari o’ndan ortiq yo’nalishlarga daxldor so’zlar jamlanmasini o’z ichiga olgan. Bir tadqiqot doirasida ularning hammasini tahlil qilishning iloji yo’q: bizning imkoniyatimiz chegaralangan. Ushbu maqolada dostondagi o’zlashgan so’zlar va ulardagi ko’pma’nolilik masalasi haqida so’z yuritamiz.

Muayyan bir tilga ikkinchi boshqa tildan so’z o’zlashtirish – qabul qilishning ba’zi sabablari bor. Xususan, birinchi omili – biror tilda paydo bo’lgan muayyan yangi tushuncha yoki narsa-hodisani ifodalaydigan leksik birlikning ikkinchi tilda mavjud bo’lmasligi, ikkinchi omil – ayni leksik birlikning bir tilda muqobili bo’lsa ham, unga teng

keladigan, unga nisbatan bir qadar obrazli, tasviriy imkoniyati keng, zamon-makonga mos yangi so‘zni – o‘zlashgan so‘zni qo‘llashga imkoniyat-zaruriyat borligidir. Mana shu omillar orqali paydo bo‘lgan o‘zlashgan so‘zlar tilning lug‘at boyligini kengaytiradi, ommalashtiradi va eng muhimmi, yozma va og‘zaki nutqida “muhrlanishi”ga sababchi bo‘ladi.

O‘zbek tili leksikasi nihoyatda katta o‘zlashma so‘zlar qatlamiga egaligi bilan turkiy tillardan ajralib turadi. Turkiy tillardagi lisoniy farqlarni ilk bor XI asrning tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asarida o‘rgangan. Uning bu boradagi buyuk xizmatlari shundan iboratki, birinchidan, o‘zining “Devoni” orqali turkiy til imkoniyatlarini har taraflama o‘rgandi va o‘ziga xos jihatlarini ochib berdi, ikkinchidan, turkiy tilga ta’sir qilayotgan xorijiy tillarga e’tiborni qaratdi. Masalan, u xorijiy tildan qabul qilingan so‘zlarga ikki xil munosabat bo‘lgan. Tilda uni nomlovchi so‘z bo‘lmasa, shunday so‘zni qo‘shni tildan olish mumkin. Biroq tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar o‘rniga boshqa til so‘zini qo‘llash zararli, deb hisoblaydi. “O‘g‘uzlar forsilar bilan aralashgach, ba’zi so‘zlarni unutdilar va ularning o‘rniga forscha so‘zlarni qo‘llay boshladilar”[2]. Demak, turkiy tillarga arabiy va forsiy tillarga mansub so‘zlar VIII-IX asrdan e’tiboran Markaziy Osiyoga shimoliy-sharqdan ko‘k turklarning, janubiy-g‘arbdan arab va forslarning kirib kelishi natijasida sodir bo‘ldi. Shu paytda turkiy tilga atama sifatida qator forsiy va arabiy so‘zlar qabul qilindi. Ayni mulohaza o‘zbek tili leksikasidagi o‘zlashma so‘zlar qatlamiga ham taalluqlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ona tilimizdagи o‘zlashma so‘zlarning tarixiy-etimologik jihatiga nazar solinsa, ular quyidagi uch yo‘nalishga xosligini kuzatish mumkin. Turkiy tillardan, arab tilidan va fors-tojik tilidan kirib kelgan so‘zlardir. Bunday so‘zlarning hammasi ona tilimizning amalda bo‘lish tamoyillariga to‘liq mos keladi. Shu ma’noda, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan barcha dostonlarda, xususan, biz o‘rgangan “Zevarxon” dostonida qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlar ham o‘zini tamomila oqlaydi.

Shu o‘rinda “o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llash doston tili uchun nima beradi”, - degan bir savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga Islom shoirning “Orzigul” dostonini o‘rgangan olima N.Xodjimusaeva quyidagicha javob bergenlarida haq edi: “Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchidan, tilimizda doimo qo‘llanilib kelinayotgan va quloq o‘rganib qolgan so‘zdan ko‘ra uning amalda kam ishlatilgan o‘zlashgan muqobilini qo‘llash obrazlilik uchun xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, so‘z o‘zlashgani bois tilda so‘zlararo sinonimiya vujudga kelib, ularning har birining ma’nosida stilistik ottenkalar ro‘yobga chiqishi va ularni o‘zaro farqlashga ehtiyoj seziladi. Uchinchidan, mumkin qadar abadiylashtirib borishi mumkin. Aytilganlarning barchasi ona tilimizning amalda bo‘lish tamoyillariga mos keladi”[1].

“Zevarxon” dostoni matnida Fozil shoir qo‘llagan barcha o‘zlashma so‘zlarni tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning imkoniyati yo‘q. Lekin, shunday bo‘lsa-da, turkiy, arabiy va fors-tojik tillarga xos o‘zlashma so‘zlar hamda ulardagi ko‘p ma’nolilik masalasini aniqlashga, qolaversa, ularning doston badiiyati uchun xizmat qilganlik darajasini belgilashga qisqacha to‘xtalishni lozim topdik.

a) turkiy tillarga xos so‘zlarda ko‘p ma’nolilik. Doston matnida shunday so‘zlar uchraydi, ularning bir qismi adabiy tildagi turkiy qatlamga xos. Masalan, yer, kon, so‘z, bel, avaylamoq, ayirmoq, aytmas, angraymoq, aniq, axtarmoq, arqon, achchiq, bek, ber, bermoq, beshik, birikmoq, bitim, biqin, bola singari narsa va hodisani ifodalovchi so‘zlar: o‘tmoq, solmoq, tortmoq, ko‘rmoq, tuzmoq, buzmoq, kesmoq, ketmoq, tushmoq, urmoq, chiqmoq, chekmoq, qilmoq, qolmoq, yoqmoq, boshlamoq kabi ish-harakat va holat ma’nosidagi so‘zlar shular jumlasidandir. Quyida ularning ayrimlariga e’tiborni qaratamiz.

Bermoq. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘zning matnda qo‘llanishidagi o‘n ma’ nosi aniqlangan (O‘TIL, 1, 234-235). Dostonda faol ishlatilgan bermoq fe’li ham bir necha ma’noni ifodalashi bilan diqqatimizni tortdi.

“Muayyan hatti-harakatning davom etishi”: Zevarxon otdan tushib bir oz damini oldi, yana otiga minib, ishq-muhabbati yuragini kuydirib, otining jilovini qo‘yib quva berdi (121).

“Yo‘q narsa bilan ta’mnlamoq”: -Bolam, agar vatan ixtiyor qilsang, parilarding ichidan chiroylisini olib berayin! – dedi (124).

“Hadya qilmoq, bag‘ishlamoq”: Mali-ka shohdan hadik olib, xavfsinib yurardi. Malik shoh butparast edi. Hech kim zo‘rlamasa ham kuniga yuz tanga berar edi (156); Hech nimani olmagandan so‘ng Zevarga bir xurjun tillo berdi (151).

“Qaramlik, tutqunlik, aybdorlik”: «Bularni aqlli odam desam, ahmoq odamlar ekan. Uchar qush odamga do‘stlik qilami, bular podshoga o‘zini boylab berdi, u qutulib ketdi» (145).

“Uzatmoq, yo‘q narsa bilan ta’mnlamoq”: ko‘zachadan quyib, oltin kosani to‘ldirib, podshoga berdi (143).

“Xabar bermoq”: Kunlardan bir kun bular keldi, ularni ko‘p ziyofat qildi. Har qaysisiga sovg‘a uchun bir taxsim tilla berdi. Bular borib Zargar G‘olibga xabar berdi (153); -Daryoda ketdi,— deb berdi xabarni // Buyurdim qancha qul ham g‘avvoslarni (196).

“Qo‘liga tutqazmoq, ixtiyoriga topshirmoq”: Tuyasini ko‘shkining ostiga olib borib, Zevarxonga berdi (158).

“To‘plamoq, yig‘moq”: Ko‘shkdan qimmatbaho narsalar pastga tashlanyapti. Sa’dulla olib, tuyaning ustiga bosaberdi (159).

“Yo‘q narsa bilan ta’mnlamoq”: Boshingdan ko‘targin urli kulfatni, // Tangrim bergen senga shunday davlatni (166).

“Joylashmoq, muayyan o‘rinni egallamoq”: El joylashib, Malikai Xubon Istambulda arz so‘rab o‘tira berdi (170).

Turkiy tillarga xos so‘zlardagi ko‘p ma’ nolilik masalasini o‘rganish davomida bo‘lmoq fe’li quyidagi lisoniy holatlari: 1) ko‘makchi fe’l vazifasida -(i)b affiksli ravishdosh shaklidagi yetakchi fe’l bilan birikkanida harakatning birov, o‘zi uchun bajarilganligini, shuningdek, yetakchi fe’ldan anglashilgan ma’noni kuchaytirib ifodalash holatlari mavjudligi kuzatildi; 2) ko‘makchi fe’l vazifasida -a, -y affiksli ravishdosh shakllaridagi yetakchi fe’llar bilan birikib kelganida, ko‘pincha -ver shaklida talaffuz qilinadi va quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: a) yetakchi fe’ldagi harakatning bajarilishi uchun qarshilik, monelik yo‘qligini bildiradi; u bemalol bajarilishi mumkinligini anglatadi; b) yetakchi fe’ldagi harakatning davomliligi, takroriyligini bildiradi. Bulardan tashqari, bo‘lmoq fe’li yetakchi sifatida boshqa fe’llar bilan birikib, qo‘shma fe’l hosil qilishi va natijada matnda xilma-xil ma’nolarni ifodalab kelishi holatlari ham kuzatildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy tillarga xos so‘zlarning ichidagi o‘tmoq fe’li doston matnida faol uchraganligi kuzatildi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘zning yigirma besh ma’ nosi (O‘TIL, 5, 181-183), Alisher Navoiy asarlari tilida (ANATIL, II, 614-615) o‘n ma’ noda qo‘llanganligi aniqlangan. “Malika ayyor” dostoni leksikasini puxta tadqiq etgan I.Umarovning ta’kidlashicha, o‘tmoq fe’li dostonda 9 ma’ noda qo‘llanilgan. Biz o‘rgangan “Zevarxon” dostonida mazkur leksikaning qancha ma’noni ifodalash masalasi diqqatimizni tortdi va natijada quyidagi holatlarni aniqladik:

Tahlil va natijalar. “Muayyan hatti-harakatdagi belgilangan vaqt, hisob”: Zevarxonni olib shaharga kirdi. O‘z saroyiga kirib uch kun oradan o‘tdi. Zevarxon suv ichmadi, ovqat yemadi (124). Oradan bir kam qirq kun o‘tdi. Ertan bularning o‘ladigan kuni, deb

turibdi (145).

“Muayyan imkoniyatni yo‘qotganlik”: Mast uyquda yorim ketdi, // Endi mendan davron o‘tdi, // Uyqu olib aqlim ketdi, // Azob lahat bori o‘tti (160).

“Afsuslanmoq, taqdiriga tan bermoq”: Shunday bo‘lib, kunim o‘tib keladi // Necha oy, necha yil bu yerda o‘tdi, // Maymundan xotinim bolalab ketdi (179); Hasratli dunyoda o‘tib boraman, // Podsho so‘rsa nima javob beraman (146).

“Muayyan yo‘nalishdagi hatti-harakatning sodir bo‘lishi”: Bular necha bahodirlar bilan ov ovlab yurgandi. Bir quyundan to‘polon-to‘zon o‘taberdi (121); Minggan oti uchar qushdan o‘tadi, // Qanday vaxshiy bo‘lsa shunday otadi (128).

“Qarama-qarshi tomondaqi harakatni yo‘q qilmoq”: Dushman bo‘lsa boshin bovday chotarmiz, // Yo‘l to‘sganni qonin to‘kib o‘tarmiz, // Shamshoddan Bog‘dodga omon yetarmiz (158).

“Tanbeh bermoq, izsiz yo‘qolmoq”: Bo‘shasang op ketar yulduz ostiga. // So‘ngra taylasami daryo ustiga, // Baliqlarga yemish bo‘lib ketasan, // Dunyodan benishon o‘lib o‘tasan (134).

“Avvalgi ma’lumotlardan xabardorlik”: Hazrati Luqmonning shogirdi bo‘lgan. // O‘tgan tabiblarning barini bilgan (142).

“Muayyan ma’lumotni oshkor qilmoq”: Shunday boshidan o‘tgan kulfatlarni gapirdi. // - Mening ahvolim ham shu ekan, — deb Zevarxon g‘amgin bo‘lib turdi (179-180).

“Avvalgi ma’lumotlardan xabarsizlik, yo‘qotmoq”: Zevarxon bul Malikai Xubonni ko‘rib, boshidan o‘tgan g‘am-kulfatlar esiga kelmay qolibdi (195).

“Muayyan yo‘nalishda harakatda bo‘lmoq”: O‘qli, muzli necha tog‘lardan o‘tib, // Bu uchar qush g‘ayratini ko‘rsatib (152).

“Xohish, istak, orzu-niyat”: Kecha-kunduz haqqa fig‘on etinglar // Kecha-kunduz demay yo‘lni tortinglar, // Chegaradan tunda o‘tib ketinglar! (156).

“Ta’sir etmoq, ta’siri yuzaga kelmoq”: Seni ko‘rib menin aqlim ketibdi, // Ajalning xanjari bag‘rim yirtibdi, // Har so‘zing tayoqdan yomon o‘tibdi (180).

“O‘z yo‘nalishidagi joyini o‘zgartirmoq, biridan boshqasiga o‘rmoq”: O‘tibman Asqar tog‘idan, // Kelaman Eram bog‘idan, // Kutqargin selning dog‘idan! (173).

“Muayyan joyda o‘tirmoq”: Bular ovdan qaytib dasht yerda kelayotsa bir chol, bir yigit bir Semurg‘ni ushlab o‘tiribdi (137).

Xulosa. “Zevarxon” dostoni matnidan keltirilgan misollardagi ma’nolardan tashqari, yana ikki lisoniy holatdagi ma’noning yuzaga kelishi kuzatildi:

1) “o‘tmoq” so‘zi mazmunidan ish-harakat anglashuvchi otlar, shuningdek, -i (sh) qo‘sishchali ish-harakat nomi bilan qo‘llanib, shu so‘z bildirgan ish, harakat qilishni boshlash, shunga kirishish ma’nosini bildiradi.

2) yetakchi fe’ldagi harakatning davomliligi, yo‘l-yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligi kabi grammatik va modal ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Зевархон. (Айтгувчи Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб оловчи М.Алавия, нашрга тайёрловчи М.Муродов, Тошкент, 1986 й).

Кошгари М. “Девони луғатит турк”.

Ходжимусаева Н. Ислом шоирнинг “Орзигул” достонининг лисоний тадқиқи, “Инновация-ЗИЁ”, Т., 2019. 52-бет.